

musiqiy folklor o'qituvchiga bolalarning ijodiy qobiliyatlari va tasavvurlarini erkin rivojlantirish, kreativ fikrlash uchun alohida imkoniyatlar beradi.

Kreativ fikrlash qobiliyatiga ega shaxsni kamolga yetkazish, o'qitish va tarbiyalashdagi muvaffaqiyat nafaqat berilayotgan bilimlarga, balki bu bilimlarning hajmini

to'g'ri o'zlashtirishga ham bog'liq. Kreativlik shaxsning erkin, mustaqil rivojlanishini nazarda tutadi va bu rivojlanishda maktab asosiy o'rinni egallaydi. Ammo, bunda maktabdagi o'quv jarayoni tashkil etish noan'anaviy tamoyillar, nostandart yondashuvlar asosida qurilishi kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. – М.: «Учпедгиз», 1957. – С. 240.
3. Davletshin M.G. O'quvchilarda texnik qobiliyatning rivojlanishi. – Toshkent: 1991.
4. Дружинин, В. Н. Психология общих способностей / В. Н. Дружинин. – СПб.: -Питер: 2002. –С. 368.
5. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1991.
6. Картавцева М. Г. Школа русского фольклора / М. Г. Картавцева. – М.: МГИК, 1994. –С. 72.
7. Мальцев С. Опыт обучения детей гармонии и импровизации. – Вып. 1. Методическая разработка. / С. Мальцев, Г.Шевченко. – Л.: 1986. –С. 90.
8. Науменко Г. Русское народное детское музыкальное творчество. - М.: Советский композитор, 1988. –С.245.
9. Вишнякова Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования. – Мн.: «Народная асвета», 1996. –С. 300.
10. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: «Просвещение», 1991. –С. 92.

REZYUME. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini xalq og'zaki ijodi namunalari bilan biri musiqiy folklor asosida rivojlantirishning ahamiyati va samaradorligi haqida so'z boradi. Kreativlik ijodiy rivojlanish ko'rsatgichi sifatida uning mohiyati muqobil ravishda, shaxsning perseptiv, kognitiv va hissiy sohalarining xarakteristikasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Kreativlik muammolari noan'anaviy tarzda hal qilishga va noodatiy g'oyalarni yaratishga qaratilgan shaxsning aqliy va shaxsiy xususiyatlari jamlanmasi sifatida aniqlashtiriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье говорится о важности и эффективности развития способностей творческого мышления учащихся младших классов на основе музыкального фольклора, одного из образцов народного творчества. Творчество как показатель творческого развития, его сущность рассматривается альтернативно, с точки зрения особенностей перцептивной, познавательной и эмоциональной сфер личности. Креативность определяется как совокупность психических и личностных особенностей человека, направленных на решение задач нестандартным способом и создание необычных идей.

SUMMARY. This article discusses the importance and effectiveness of developing creative thinking abilities in primary school students based on musical folklore, one of the examples of folk art. Creativity as an indicator of creative development, its essence is considered alternatively, from the point of view of the characteristics of the perceptual, cognitive and emotional spheres of the individual. Creativity is defined as a set of mental and personal characteristics of a person aimed at solving problems in a non-standard way and creating unusual ideas.

O'ZBEK TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING NAZARIY MASALALARI

S.S.Jumamuratova – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiya, lingvomadaniy kompetensiya, til, ta'lim, elektron dastur, elektron mashqlar.

Ключевые слова: цифровая технология, лингвокультурная компетентность, язык, образование, электронная программа, электронные упражнения.

Key words: digital technology, linguistic and cultural competence, language, education, electronic program, electronic exercises.

Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi, bu o'z o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish, uni yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash, ta'lim jarayoniga tatbiq etish kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning kompyuter texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib tashkil etilishi va shu asosda multimedia darslarining yaratilishi asosiy yo'nalishga aylanib qolmoqda. Til o'rganishning yana bir muhim usullaridan biri kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Fan-texnika rivoji natijasida til o'rgatish uchun maxsus kompyuter dasturlari yaratildi. Ularda fe'llar, zamonlar, modal fe'llar tavsifi va zaruriy gap qoliplari keltirilgan" [1:19]. Zamonaviy ta'lim texnologiyasida til o'rgatuvchi kompyuter dasturlari muhim o'rin tutadi. Bu dasturlarning ayrimlari elektron o'qituvchi bilan ta'minlangan. O'qituvchi lingvistik avtomatlardan foydalanishda ikki xil yondashuv mavjud:

1) bixevioristik yondashuv – mavjud an'anaviy o'qitish tizimining barcha jabhalarini e'tiborga oluvchi o'qitish mexanizmlari, grammatikaning ma'lum bo'limi tugagandan so'ng uni topshiriqlar asosida baholash, shuningdek, leksik minimumlar bo'yicha bilimni nazorat qilishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minotga asoslangan o'qitish tizimi. Bunda bixeviorizmning "stimul – reaksiya – mustahkamlash" formulasiga asoslaniladi. O'qitish usullari

"stimul" (turtki) vazifasini bajaradi, o'rganuvchi bundan ta'sirlanadi va bilimni mustahkamlaydi.

2) kognitiv-intellektual yondashuv – CALL (CALL Software) uchun universal dasturiy ta'minotlar yaratish, o'qitish tizimini lug'at bazasi, grammatika bo'yicha qo'llanmalar, avtomatik korrektorlar, speller bilan ta'minlash, audio va vizual effektlar bilan boyitish kabi amaliy ishlar majmuyidir. Til o'rgatishda quyidagi kompyuter dasturlarini qo'llaniladi: taqdimot texnologiyasi, ya'ni mashg'ulotni ko'rgazma sifatida o'tkazish, darsda kompyuterdan foydalanishning eng oson usulidir. Buning uchun o'qituvchiga birgina kompyuter va multimedia proektori kerak bo'ladi. MS Power Point dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda slaydlar yaratiladi va ko'rgazmalar paketi tayyorlanadi.

O'zbek tili fani bo'yicha mavjud bo'lgan muayyan darslikning kompyuterdagi varianti (nusxasi) bo'lib, unda multimedia vositalaridan faqat ovoz va matn qatnashadi. Elektron multimedia darsligi – aynan kompyuter vositasida o'quv kursini yoki uning katta bo'limini o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi dasturiy-metodik kompleks. Multimedia ("ko'p qavatli muhit" degan ma'noni bildiradi) zamonaviy kompyuterlarining, deyarli, barchasida mavjud bo'lgan imkoniyatlar majmuyini, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari – matn, jadval, grafika, ovoz, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa yordamida ma'lumotni yig'ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "inson-kompyuter" interfaol (dialogik) muloqotining yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va batafsil axborot

oladi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtinchi qismini, ko'rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa, axborotning ellik foizini esda saqlaydi. Interfaol multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa bu ko'rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi. Shu bois, ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega [2:66]. Multimediali texnologiya dastur va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli tasviriy axborotlarni tovushli-ovozli, rangli, harakatga keltirilgan holda ifodalash imkoniyati demakdir. Hozirgi kunda tilshunoslik fanlarini o'rganishda birgina darslik, o'quv qo'llanma va ma'ruza matnlari bilan cheklanmasdan, shu fan sohalariga oid multimediali yoki animatsiyali o'quv ko'rsatuvlari va elektron darsliklar yaratish tilshunoslik sohalarini chuqurroq o'rganish uchun aniq imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu esa talabalarning tilshunoslik fanlariga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ilmiy ish olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Elektron ensiklopediya – kuchli qidiruv tizimiga ega bo'lgan ma'lum yo'nalishdagi turli xil maqolalar, elektron xaritalar, fotosuratlar, giperhavola (gipermurojaat)lar, audio va videoizohlar, xronologik ro'yxat, foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va hokazolardan iborat bo'lgan katta hajmdagi elektron dastur.

Elektron lug'at – odatdagi lug'atlar asosida tuzilgan, multimedia vositalari bilan boyitilgan dastur. Elektron lug'at turli yo'nalishda tuzilishi mumkin, undan talabaning so'z boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi.

O'rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun samarali ta'lim texnologiyalaridir. To'g'ri talaffuzni o'rgatuvchi kompyuter dasturlarida animatsiya yordamida tovushning artikulyatsiya o'rni, usuli ko'rsatiladi, etalon nutq eshittiriladi, talabaning o'z talaffuzi yozib kiritiladi, so'ngra u adabiy til me'yori bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, audiodasturlar qatoriga "Karaoke" tizimini kiritish mumkin. Undan hordiq chiqarishda yoki biron tadbirni o'tkazishda foydalanish qulaydir.

Universal test dasturi o'zbek tili darslarining biror yirik bo'limi bo'yicha test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo'lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta'minot asosida turli xil test sinovlarini o'tkazish, ya'ni faqat matnni o'zgartirib, dasturni har xil mavzularda qo'llash mumkin.

Elektron virtual kutubxona – multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona. Internet tarmog'idan o'zbek tilini o'rganuvchilar unumli foydalanishlari mumkin: mustaqil ta'lim jarayonida ma'lumotlar to'plash, mavzularni o'zlashtirish, berilgan mavzuda referat, insho yozish va boshqalar. Shuningdek, talaba elektron pochta – axborotni bir kompyuterdan ikkinchisiga yuborishni ta'minlovchi tizim orqali o'qituvchi yoki tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi mumkin. Videomateriallar bilan ishlash til o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining bu vositasi turli ko'rinishda qo'llanilishi mumkin. Masofaviy ta'lim – masofadan internet tarmog'i orqali o'qitish usuli bo'lib, bu borada respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar o'tkazilmoqda [2:67].

Tillarni o'qitish tizimi hisoblangan kompyuterda lingvomadaniyatga oid quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

✓ Close the gap – bo'sh kataklarni to'ldirish topshirig'i. Bunda semantika va grammatika sohalarini o'rganish kerak;

✓ krossvordlar va leksik topshiriqlar;

✓ elektron pochtdan foydalanib bajariladigan mashq (turli xatlar yoki elektron hikoyalar tuzish asosida) word-hunting;

✓ matnlarning avtomatik tarjimai va tahriri bo'yicha o'yinlar;

✓ grammatikaning turli sohalarini bo'yicha diagnostik testlar o'tkazish;

✓ CD-ROMda standart o'qitish kurslaridan foydalanish.

Mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanishning turli-tuman usullari mavjud. Sanab o'tilgan va boshqa bir qator kompyuter texnologiyalarini til o'qitish jarayonida foydalansak samarali natija beradi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash «ta'lim texnologiyasi» yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini «texnologiyalashtirish»ning tashkiliy jihatlari o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish «texnologiya» tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yuritib boshlagan «Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan qo'mita» tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi.

Pedagoglar elektron axborot-ta'lim resursi haqida muayyan tushunchalarga ega bo'lishlari taqozo qilinadi.

Xo'sh, elektron axborot-ta'lim resursi deganda nima tushuniladi?

XX asr oxiri XXI asr boshlarida barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida qo'llanilayotgan tushuncha va atamalar miqdori ko'paydi. Bu holat muayyan chalkashliklarga ham sabab bo'lmoqda. Mashhur fransuz matematigi Rene Dekart: «So'zlar ma'nosini aniqlang. Shunda siz dunyoni yarim chalkashlikdan xalos etgan bo'lasiz» deb bejiz aytmagan. Kichik tadqiqotimizni o'tkazish jarayonida ham bir-biriga juda o'xshash, ba'zan ajratish, farqlash qiyin bo'ladigan atama va tushunchalarga duch keldik. Jumladan, resurs, axborot ta'lim resursi, interfaol elektron axborot ta'lim resursi, raqamli ta'lim resursi kabi tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglab olish taqozo qilinadi.

Avvalo, resurs atamasi haqida. Resurs so'zi fransuzcha bo'lib, «ressource» – yordamchi vosita demakdir. Biror narsaning manbasi, yordamchi ashyo deganidir [3:40]. Ta'limiy resurslar deyilganda quyidagi yordamchi vositalarni qamrab olish mumkin: axborot-ta'lim muhitining tarkibiy qismlari, axborot-ta'lim sohasi va ijtimoiy-pedagogik «ta'lim mazmuni» (ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturi, o'quv adabiyotlari), umumiy pedagogik taraqqiyot vositalari; didaktik, motivatsion va takomillashtiruvchi vazifalarni bajaruvchi didaktik vositalar [4:23].

Metodik adabiyotlarda quyidagi ta'riflar keltirilgan:

Axborot ta'lim resursi – bu ta'lim sohasida yangi axborot texnologiyalaridan maqbul foydalanishni, ularni ta'lim faoliyatining barcha turlari va shakllariga joriy etishni ta'minlaydigan texnik, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya va uslubiy vositalar majmuyi. Bu – o'quv-ma'lumotlar bazasi, bilimlar bazasi; texnik va dasturiy vositalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash deb ham tushuniladi.

Interfaol elektron axborot ta'lim resursi – bu turli xil aloqa obyektlari: kompyuter, aloqa-texnik vositalari, dasturiy ta'minot va uning imkoniyatlari, muayyan darsning vazifalarini hal qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan va tanlangan elementlar, shuningdek talaba va o'qituvchining axborot almashish jarayonini amalga oshirishga hissa qo'shadigan tadbirlar.

Raqamli ta'lim resurslari – bu raqamli ravishda taqdim etilgan fotosuratlar, videokliplar, statik va dinamik modellar, virtual haqiqat va interfaol modellashtirish obyektlari, kartografik materiallar, ovoz yozuvlari, ramziy obyektlar va biznes grafikasi, matnli hujjatlar va ta'lim

jarayonini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan boshqa o'quv materiallari.

Elektron ta'lim resurslari – bu kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan va joriy qilingan o'quv vositalarini birlashtiradigan eng keng tarqalgan atama. Raqamli ta'lim resurslari – bu elektron ta'lim resurslarining maxsus holati, raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan va ishlaydigan ta'lim resurslari.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, lingvomadaniy kompetensiya va shu kabi boshqa yondashuvlarni rivojida raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. Chunki elektron tarzda darslar tashkil etilsa o'quvchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest: 2006. 19-b.
2. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - T.: 2007.
3. Насс О.В. Формирование компетентности педагогов в проектировании электронных образовательных ресурсов в контексте обновления общего среднего и высшего образования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01 / О. В. Насс ; Московский городской пед. ун-т. – М.: 2010 –С. 40.
4. Борщевская Ю.М. Педагогические условия использования образовательных ресурсов как средства индивидуализации развития детей 6–8 лет: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / Ю. М. Борщевская ; Нижегород. гос. архитектур.-строит. ун-т. – Н. Новгород: 2009. –С. 23.

REZYUME. Ushbu maqolada o'zbek tili ta'limida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularning rivoji haqida to'xtalgan. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari haqida ma'lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье основное внимание уделяется эффективному использованию цифровых технологий в образовании узбекского языка и их развитию. Дана информация об эффективных методах использования цифровых технологий в развитии лингвокультурной компетенции.

SUMMARY. This article focuses on the effective use of digital technologies in Uzbek language education and their development. Information is given on the effective methods of using digital technologies in the development of linguistic and cultural competence.

SCAMPER TEXNIKASI ASOSIDA BOLA BILAN ISHLASHNING MAXSUS MASHQLARI VA FAOLIYAT TURLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

A.Karimova – assistent o'qituvchi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: texnika, intellektual qobiliyat, integratsiya, minimalizm, innovatsion, eliminate (chiqarib tashlash), reverse (teskariy o'zgartirish)

Ключевые слова: техника, интеллектуальные способности, интеграция, минимализм, инновационный, устранение, реверс.

Key words: technique, intellectual ability, integration, minimalism, innovative, eliminate, reverse.

Maktabgacha ta'lim bolalarning ijtimoiy, jismoniy va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois bu davrda qo'llaniladigan ta'lim metodlari va texnikalari juda muhimdir. SCAMPER texnikasi bolalarda ijodkorlikni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tez o'zgaruvchan va o'rganishga moyil bo'lgan davrda bo'lishadi. Shu sababli ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. SCAMPER texnikasi bolalarni turli xil fikrlash jarayonlariga undaydi va ularning muammolarni hal qilishda ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini oshiradi.

Scamper texnikasining ta'limdagi ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin:

1.Ijodiy fikrlashni kengaytiradi. SCAMPER texnikasi bolalarga mavjud narsalarni yangicha usullarda ko'rishga va ularni o'zgartirishga undaydi. Bu esa, bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2.Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Har bir SCAMPER elementi bolalarni muammolarni turli yo'llar bilan ko'rib chiqishga va yechimlar izlashga undaydi. Bu kelajakda murakkab vaziyatlarni hal qilishda yordam beradi.

3.O'z-o'zini ifoda etishni o'rgatadi. SCAMPER texnikasi orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va turli materiallar yoki g'oyalar bilan ishlashga o'rganadilar. Bu ularning o'z-o'zini ifoda qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

4.Turli sohalarga qiziqishni kengaytiradi. Bolalar SCAMPER texnikasini qo'llagan holda turli sohalarni – san'atdan fanlargacha kashf etadilar, bu esa ularning qiziqish doiralarini kengaytiradi [4].

Maktabgacha ta'limda SCAMPER texnikasini qo'llash bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu texnika nafaqat

bolalarning shaxsiy rivojlanishida, balki ularning kelajakdagi akademik va professional faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlarida ham muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalari ushbu texnikani o'z dasturlariga integratsiya qilish orqali, bolalarni yangi asrning talablariga javob beradigan tarzda tayyorlashi mumkin.

Maktabgacha ta'lim bolalarning jismoniy, ijtimoiy, va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu sababli bu davrda qo'llaniladigan ta'lim metodlari va yondashuvlarining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. SCAMPER texnikasi aynan shunday yondashuvlardan biri bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta o'rin tutadi.

SCAMPER texnikasi maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatiladigan noyob va samarali metodlardan biridir. Bu texnika Bob Eberle tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va mavjud narsalarni yangicha tarzda ko'rish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. SCAMPER texnikasi quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

-bolalarga bir narsani boshqasi bilan almashtirish orqali yangi g'oyalarni yaratishni o'rgatadi.

-turli narsa yoki g'oyalarni birlashtirish orqali yangi mahsulot yoki yechimlarni yaratishga undaydi.

-mavjud narsa yoki g'oyani yangi sharoitlarga moslashtirish imkoniyatini beradi.

-mavjud narsa yoki g'oyani o'zgartirish yoki yangilash imkoniyatini taqdim etadi.

-mavjud narsa yoki g'oyani boshqa maqsadda qo'llashni o'rgatadi.

-keraksiz yoki ortiqcha elementlarni chiqarib tashlash orqali soddalashtirishni o'rgatadi.